

## OILA JAMIYATNING ASOSIY BO'G'INI.

**Mamadaliyeva Dilyora Shavkat qizi**

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi kursanti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada “Oila jamiyatning quyi asosiy bo'g'ini” ekanligi keng va taroflicha yoritilgan. Oila qurishning ma'naviy asoslari va qadriyatlarga asoslanganligi, huquqiy demokratik davlat qurishda oilaning o'rni va ahamiyati, nikoh tuzish tartibi va shartlariga alohida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, oila qurish va keying oilaviy munosabatlarda ma'naviyat masalalariga, xalqaro huquq normalariga va eng asosiysi davlatning asosiy qonuni Konstitutsiyadan shu mavzuga oid ma'lumotlarga to'xtalib o'tilgan.*

**Kalit sozlar:** *jamiyat, Konstitutsiya, kodeks, ma'naviyat, hadis, demokratiya, nikoh, Oila kodeksi.*

### **Oila tabiatning shoh asarlaridan biridir.**

#### **J.Santanaya**

Insoniyatning ko'p ming yillik tarixi mobaynida oila, oilaviy munosabatlar juda katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Turli davrlar bularga o'z ta'sirini o'tkazdi. Mohiyati bir bo'lsada, turli xalqlarda oilaviy munosabatlar turli xil shakllarda namoyon bo'ldi.

Oila — muqaddas. Oila qurish — o'ta mas'uliyatli ishdir. «Oila eskilik unsuri emas». U muqaddas, oilada millat kelajagi mujassam. Yoshlarni tarbiyalash, kamolotga yetkazish, ilm hunar berish, uyli-joyli qilish — aksariyat oilalarning eng oliy maqsadidir. O'zbekning hayotdan ko'zlagan asl muddaosi — bola chaqali bo'lish, bularning to'yini, orzu-havasini ko'rish. Yosh avlodni hayotga yo'llantirish, bular uchun muayyan boshlang'ich nuqta — start pozitsiyasi yaratib berishga nisbatan munosabat turli millatlarda turlichadir. Ayrim xalqlar mentalitetida farzandlar voyaga yetgach, oilasi, ota-onasini tashlab, faqat o'z kuchi bilan mustaqil oyoqqa turish uchun uyini tark etadi. O'zi ham oila qurib, farzand ko'rib, uni katta qilganda — u ham avlodlar vorisligiga chek qo'yib, oilasini tark etadi.

O'zbek oilalarida uchto'rt, hatto besh avlod vakillari (ya'ni, bobobuvilar, otaonalar, farzandlar, nevaralar va chevaralar) o'zaro ahillikda, bahamjihat umr kechiradilar.

Har bir bo'g'inning o'z burchi va mas'uliyati, o'z erki va mavqeyi bor

Oila nima? Bu so'z qanday lug'aviy ma'nolarga ega? Asli qaysi tilga mansub? Oila asli arabcha “ayolmand”, “nizyozmand” ma'nolarini anglatuvchi “Oil” so'zidan olingan.

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlovchi ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni dunyoga keltirib tarbiyalovchi muqaddas makondir. Ushbu mo'jaz makon jamiyat deb atalmish buyuk bir makonning poydevorini tashkil etadi. jamiyatning, davlatning farovonligi, gullab-yashnashi aynan shu poydevor mustahkamligiga bog'liqdir.

Shu boisdan ham mamalakatimizda amalga oshirilyotgan tub islohotlar mazmunida oila manfaatlarini huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy jihatdan himoya qilishni ta'minlash

masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashda oila va jamiyatning ma'suliyati bosqichma-bosqich oshirilmoqda.

Oilani mustahkamlash dunyo darajasiga ko'tarilgan muammolardan biridir. Oilalar ahilligi va mustahkamlashga erishish maqsadida BMT Bosh Assambleyasi 1993 20 sentabrdagi yig'ilishida 15 mayni har yili "Xalqaro oila kuni" sifatida nishonlash to'g'risida qaror qabul qildi. Shu munosabat bilan, 1994 yildan e'tiboran har yili 15 may kunini "Xalqaro oila kuni" sifatida nishonlash belgilab qo'yildi. Oila – davlat muhofazasida.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 65 moddasi 2 qismi hamda O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi 4 moddasining 1-qismiga binoan, oila, otalik, onalik va bolalik davlat himoyasidir. Oilaning davlat muhofazasida ekanligi qabul qiliniyotgan qator qonunlar va qonun osti hujjatlarda o'z aksini topmoqda. Bu holat O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti va amaldagi Prezidentimiz farmonlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining bu sohadagi birinchi Farmoni 1990 yil 3 mayda qabul qilingan bo'lib, u "Ko'p bolali oilalarga nafaqa miqdorini ko'paytirish to'g'risida" deb nomlanadi. (Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq 3,3 million oila birinchi marta yer uchastkalariga ega bo'ldi va yer uchastkalarini kengaytirdi). Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan 1998 yilni O'zbekistonda "Oila yili" deb e'lon qilindi. 1998 yil 30 aprelda "O'zbekiston Respublikasining yangi Oila kodeksi" qabul qilindi. (8 bo'lim, 30 bob, 238 moddadan iborat)

Amaldagi Oila kodeksiga yangilik sifatida "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish" qoidasi kirib (17 moddasi) keldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25 avgustdagi 365-son qarori bilan tasdiqlangan "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi Nizom" ga ko'ra, nikohlanuvchi shaxslar psixik, narkologik, teritansil, sil kasalliklari va OIV/OITS kasalliklari bo'yicha tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. Tibbiy ko'rikdan o'tish muddati tibbiyot muassasasiga murojat qilgan kundan boshlab 2 hafta qilib belgilandi.

Demak, yuqoridagi holatlardan anglash mumkinki, oilaning mustahkamligi o'zaro oila a'zolarining ishonchlik va tenglik asosidagi o'zaro hurmatga asoslanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 63 moddasi 2 qismida ham "Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi" degan konstitutsiyaviy qoidaning mavjudligi, oila va nikoh tushunchalari, ularning mazmun va mohiyati qanchalik muqaddas va huquqiy asoslantirilganligini ko'rishimiz mumkin.

Abu Hurayra Roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda, Abiy alayhisalom shunday deydi: "Ayollarning yaxshisi-qarasang ko'zni quvontiradigan, amr qilsang – itoat etadigan va uyda o'zini iffatini ham, sening mol-mulkingni ham muhofaza qilguvchisidir".

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo'ladi va tez rivojlanadi. Zero, jamiyat asosi-moddiy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlanib borishi g'oyat muhim ahamiyatga ega. Oila munosabatlarining konstitutsiyaviy asosda hal qilinishi, Konstitutsiyada unga alohida bob ajratilishi, bizda oilaga bo'lgan jiddiy munosabatning isbotidir. Oilani mustahkamlash bu jamiyatni mustahkamlash va

rivojlanish ekanligi davlatning oilaga bo'lgan munosabatini belgilovchi asosiy holatdir. Inson o'z salomatligini saqlashga harakat qilgandek, jamiyat ham oilani mustahkamlashga harakat qiladi, chunki jamiyat sog'lig'i oila sog'lig'lomligiga bog'liq. Oilalar sog'lom bo'lsa, jamiyat ham sog'lom bo'ladi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, farzandlarni ota-ona oldidagi burchini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi O'zbekistonga xos xususiyatdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi .T.2020
2. Karimov. I.A. Bizning yo'limiz-demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir.  
T. "O'zbekiston", 2012-yil
3. Mirziyoyev Sh. "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti va kelajagi farovon bo'ladi". T, "O'zbekiston" 2019-yil
4. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. "Adolat" ,T.1998
5. "Xalq so'zi" gazetasi, 2011 yil 8-dekabr